

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 05 | pp. 38-47 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNI HISOB SIYOSATI VA UNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI



Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich

E-mail: fabduvaxidov206@gmail.com

To'ychiyeva Dilnoza Farxod qizi

E-mail: toychiyevadilnoza16@gmail.com

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda hisob siyosati va uni shakllantirish bosqichlari bilan bog'liq masalalar nazariy hamda uslubiy jihatdan tadqiq etilgan. Bu borada olib borilgan tadqiqot natijalari tahlil etilib, muallif hisob siyosatini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: hisob siyosati, buxgalteriya hisobotning milliy standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, tamoyillar, uslublar, usullar.

Аннотация: В данной статье теоретически и методически исследованы вопросы, связанные с учетной политикой в хозяйствующих субъектах и этапами ее формирования. Проанализированы результаты исследования, проведенного в этом направлении, даны предложения и рекомендации по приведению учетной политики в соответствие с международными стандартами.

Ключевые слова: учетная политика, национальные стандарты бухгалтерской отчетности, международные стандарты финансовой отчетности, принципы, методы, приемы.

Abstract: This article explores theoretical and methodological aspects of accounting policy in business entities and its formation stages. The results of the research conducted in this area were analyzed, and proposals and recommendations were made to bring accounting policies in line with international standards.

Keywords: accounting policy, national accounting standards, international financial reporting standards, principles, methods, techniques.

Kirish

Bugungi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisob siyosati va uni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoj amaldagi qonuniy va me'yoriy hujjatlar talablarigina emas, balki, ularning hisob tizimini to'g'ri yuritish uchun ham zaruriyat hisoblanadi. Chunki barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarga bir hil hisob yuritishning tizimini yozib berishi bir tomondan mumkin bo'lmasa, ikkinchi tomondan esa, har bir subyekt faoliyatiga alohida hisob tizimini yozib berish imkoniyati ham yo'q. Shuning uchun u yoki bu operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish qoidalari va tamoyillarini ishlab chiqish har bir xo'jalik yurituvchi subyektning vazifasi hisoblanadi.

Jahon tajribasi har bir mamlakat buxgalteriya hisobining asosiy qoidalarini va tamoyillarini markazdan tartibga solishi, ya'ni tegishli qonuniy-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishi, ushbu hujjatlar asosida esa, har bir xo'jalik subyekti o'zining boshqaruv va tashkiliy-texnologik xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni aniqlashtirishi zarur bo'ladi.

Moliyaviy hisobotlardagi axborotlarning ishonchliligi, haqqoniyligini ta'minlashda hisob siyosati asos bo'lib hisoblanadi. Hisob siyosati xo'jalik yurituvchi subyektlarda uning xususiyatidan kelib chiqib, buxgalteriya hisobini yuritishning tartib-qoidalarini belgilaydigan hujjat hisoblanadi. Shu boisdan, xalqaro standartlarga muvofiq, xo'jalik mablag'lari va ularni tashkil etish manbalari hisobini yuritish tartibining hisob siyosatida yoritilishi, ular bilan bog'liq operatsiyalarning to'g'ri va ishonchli aks ettirilishini ta'minlaydi.

Xo'jalik jarayonlari bilan bog'liq majburiyatlar va aktivlarni baholash tartibini hisob siyosatida to'g'ri aks ettirish dolzarb masalalardan biridir. Ushbu masalalarni hal etish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarda hisob siyosati va uni to'g'ri shakllantirish bilan bog'liq bosqichlarni aniqlashtirishni taqozo etadi. Bunda hisob siyosatining muhim jihatlarini tarkiblash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining hisob siyosati bilan bog'liq masalalar ko'pchilik iqtisodchi olimlar va mutaxassislarning diqqat markazida bo'lgan. Ular tomonidan ushbu masalalarning turli jihatlarini takomillashtirish yuzasidan o'z fikr va mulohazalari bayon qilingan ilmiy maqola, risola hamda ilmiy asarlar chop qilingan. Bularni isboti sifatida hisob siyosati tushunchasi va uni shakllantirish uslubiyoti bo'yicha iqtisodiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar va uslubiy asoslarda keltirilgan manbalarga e'tiborimizni qaratamiz.

1-jadval

Hisob siyosatiga olimlarning bergan ta'riflari

№	Yondoshuvlar	Ta'riflar
1	Djumayeva G.A.	Hisob siyosati - korxonada uning xususiyatidan kelib chiqib, buxgalteriya hisobini yuritishning tartib-qoidalarini belgilaydigan hujjat hisoblanadi [1]
2	Rafeev D.R.	Hisob siyosati – korxonalar tomonidan qabul qilingan buxgalteriya hisobi usullari majmui - birlamchi kuzatish, xarajatlarni o'lchash, joriy guruhlash va iqtisodiy faoliyat faktlarini yakuniy umumlashtirish [2]
3	Baxadirov A.K.	Hisob siyosati - bu moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish uchun kompaniya tomonidan qabul qilingan o'ziga xos printsiplar, asoslar, konventsionalar, qoidalar va amaliyotlar [3]
4	Ave Nukka, Malle Kasearu.	Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisob siyosati qoidalarini ishlab chiqishi kerak, ular buxgalteriya hisobining mazmunini tavsiflash bilan birga buxgalteriya hisobi rejasini tuzishi, xo'jalik operatsiyalarini hujjatlashtirishi va qayd etishi, dastlabki hujjatlarning aylanishi hamda

		saqlanishini tartibga solishi lozim [4]
5	Alayemi S.	Hisob siyosati moliyaviy hisobotlarda keltirilgan ma'lumotlarni to'g'ri tushunish uchun juda muhimdir. Korxonalar moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda qo'llagan hisob siyosati qoidalarini aniq ko'rsatishi kerak", [5] degan xulosaga kelgan
6	Bahadir, Büke Tolga	Hisob siyosati moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishda korxona tomonidan qo'llaniladigan prinsiplar, asoslar, qoidalar va amaliyotlar yig'indisi hisoblanadi, ular aktivlar, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlarni baholash hamda hisobga olish bilan bog'liq usullardan iborat [6]
7	Zufarova Z.	Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan tashqi foydalanuvchilar uchun taqdim etiladigan moliyaviy hisobot axborotlarining sifati mazkur sub'ektlar tomonidan ishlab chiqilgan hisob siyosatiga bevosita bog'liqdir. Hisob siyosati aktivlar, xususiy kapital, majburiyatlar, daromad va xarajatlarning moliyaviy hisobotda to'g'ri va normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida shakllanishini belgilab beruvchi hujjat hisoblanadi [7]
8	Sayfutdinov B.N.	hisob siyosati har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisobot davrida buxgalteriya hisobi ishlarini yuritishda qo'llaniladigan qoidalar, usullar va talablar majmuasini o'z ichiga mujassam etadi. Hisob siyosatining oqilona va izchil tuzilishi moliyaviy hisobot axborotlarining ishonchliligi va shaffofligi oshishiga xizmat qiladi [8]
9	Adamenko A.A., Berlina S.X.va Xuako X.Sh.	hisob siyosati kompaniyani boshqarish vositasidir [9]
10	8-son "Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti	Hisob siyosati – bu tadbirkorlik subyekti tomonidan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda va taqdim etishda qo'llaniladigan muayyan tamoyillar, usullar, odatlar, qoidalar va amaliyotlardir [10]
11	1-sonli "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati" BXMS	Hisob siyosati deganda tashkilotning rahbari buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish uchun qo'llaydigan usullari, ularning prinsip va asoslari bilan birgalikdagi jamlamasi tushuniladi [11].

Manba: Adabiyotlar asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Ushbu ta'riflardan ko'rinib turibdiki, iqtisodchi olimlar, tadqiqotchilar va soha xodimlari tomonidan hisob siyosatiga berilgan ta'riflarda turlicha yondoshuvlarni ko'rishimiz mumkin. Bunda, ularning asosiy fikrlari buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etishga qaratilgan yondoshuvlaridir. Lekin xo'jalik yurituvchi subyektlarni hisob siyosatini shakllantirish bosqichlariga to'liq va batafsil to'xtalmaganligini ko'rish mumkin. Faqat Rafeev D.R. (2023): Korxonalar xisob siyosati: tuzish zarurati, talablari va vazifalari mavzusidagi ilmiy maqolasida [2] hisob siyosatini tuzish zaruriyati, talablari va vazifalari qisman yoritib berilganligini ko'rishimiz mumkin.

Agarda olingan ma'lumotlar va ular asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlar ma'lum bir davrlar uchun qiyoslanuvchan bo'lishligini nazarda tutsak, hisob siyosati bu maqsadga erishishni ta'minlovchi vosita, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shu boisdan mazkur maqolada muallif tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarni hisob siyosatini shakllantirish bosqichlari haqida ilmiy - nazariy va amaliy ahamiyatga molik taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishni joiz deb topdik.

Tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy maqolada tahlil va sintez, tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, monografik kuzatuv, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Yuqorida keltirilgan ta'riflarni tahlilidan shuni xulosa qilish mumkinki, barchasida hisob siyosatini shakllantirish, yuritish borasidagi mavjud jihatlari fikrlarda to'liq o'z ifodasini topmagan. Iqtisodiy adabiyotlarda hisob siyosatinining tarkibiy jihatlari ya'ni, uslubiy, texnik va tashkiliy jihatlarga ajratishgan. Quyida biz hisob siyosatini shakllantirishga qo'yiladigan quyidagi talablarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- xo'jalik faoliyatidagi barcha jarayonlarning buxgalteriya hisobida to'liq aks ettirilishi;

- xo'jalik faoliyatining istisnosiz barcha jarayonlarini buxgalteriya hisobida o'z vaqtida aks ettirish;

- ehtiyotkorlik, boshqacha qilib aytganda, xo'jalik yurituvchi subyekt yashirin zaxiralarni yaratishga yo'l qo'ymasdan, mumkin bo'lgan daromadlar va aktivlarga qaraganda xarajatlar va majburiyatlarni olishga va hisobda aks ettirishga tayyor bo'lishi kerak. G'arb amaliyotida ushbu talabga muvofiq foyda va zararlarining asimmetrik hisobi deb ataladigan usul qo'llaniladi, ya'ni foyda faqat xo'jalik operatsiyasi amalga oshirilgandagina hisobda aks ettiriladi, zarar esa, uning ehtimoli to'g'risida taxmin paydo bo'lgan paytdan boshlab aks ettirilishi mumkin. Shuning uchun hisobot davri tugagunga qadar maxsus zaxiralar, masalan, shubhali qarzlar bo'yicha zaxiralar tashkil etish zarurati tug'iladi. Haqiqatda esa, bunday zaxiralarni tashkil etish faqat moliya yili tugagandan so'ng amalga oshirilishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, ehtiyotkorlik talabi to'liq hajmda bajarilishi mumkin emas;

- mazmunning shakldan ustunligi xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun xo'jalik operatsiyalarini aks ettirishda huquqiy shaklga emas, balki ularning iqtisodiy mazmuniga ustunlik berilishi kerakligini anglatadi.

- buxgalteriya hisobidagi ziddiyatsizlik har oyning oxirgi kalendar kunidagi sintetik hisob schyotlari bo'yicha oborotlar va qoldiqlar hamda buxgalteriya hisoboti ko'rsatkichlari bo'yicha analitik hisob ma'lumotlarining bir xilligini anglatadi;

- oqilonalik buxgalteriya hisobini ularning xo'jalik yuritish sharoitlariga, kompaniya hajmiga qarab oqilona va iqtisodiy mazmuni inobatga olingan holda yuritishni ifodalaydi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning hisob siyosatini ishlab chiqish va tasdiqlashda 21-sonli «Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnomasi [13] asosida shakllantirishi, o'z navbatida, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati bilan bog'liq barcha operatsiyalarni to'liq, ishonchli aks ettirish uchun zarur hamda yetarli bo'lgan hisobvaraqlar ro'yxatini o'z ichiga olishi lozim.

Xo'jalik yurituvchi subyektning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, birlamchi hujjatlarning shakllari tasdiqlanadi, ular amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq mustaqil ravishda ishlab chiqiladi. Uning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinib, hisob siyosatini shakllantirar ekan, u O'zRning buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi qonuniy va me'yoriy hujjatlarida yo'l qo'yiladigan bir necha usullaridan eng maqbulini tanlaydi.

Buxgalteriya hisobining konseptual asoslari, BHMS va MHXS qoidalariga muvofiq, buxgalteriya apparati xodimlarining ham nazariy ham amaliy ko'nikmalaridan foydalanishni hisobga olgan holda buxgalteriya hisobini yuritishning yangi individual usul va uslublarini ishlab chiqish mumkin [10, 11, 12, 13].


Hisob siyosatini shakllantirishda xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan tanlangan buxgalteriya hisobini yuritish usullari hisob siyosatini tasdiqlash to'g'risidagi tegishli buyruq yoki farmoyish chiqarilgan yildan keyingi yilning 1-yanvaridan boshlab qo'llaniladi. Yangi xo'jalik yurituvchi subyekt tashkil etishda hisob siyosati u ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab 90 kundan kechiktirmay rasmiylashtiriladi.

Hisob siyosatidagi o'zgarishlar quyidagi hollarda sodir bo'lishi mumkin: O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki buxgalteriya hisobi bo'yicha me'yoriy hujjatlar o'zgarganda; xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan axborotning ishonchiligi darajasini pasaytirmagan holda yanada oqilona yoki boshqacha aytganda kam mehnat talab qiladigan buxgalteriya hisobini yuritishning yangi usullari ishlab chiqilganda; qayta tashkil etish, mulkdorning o'zgarishi va shu kabilar bilan bog'liq faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari o'zgarganda.

Hisob siyosatidagi o'zgarishlar har doim asoslangan bo'lishi va xo'jalik yurituvchi subyekt rahbarining buyrug'i bilan rasmiylashtirilishi hamda hisobot yili boshidan joriy etilishi lozim. Agar hisob siyosatidagi o'zgarishlar xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatsa, ular pul ifodasida baholanishi kerak. Qabul qilingan hisob siyosati buxgalteriya hisobotidan ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lishi lozim. Shu maqsadda hisob siyosatini ochib berishda foydalanuvchilar uchun iqtisodiy jihatdan qiziqarli bo'lgan va ularga buxgalteriya hisobini yuritish usullarini tushunishga yordam beradigan bandlarga e'tibor qaratish juda muhimdir.

Manfaatdor foydalanuvchilarning manfaatlarini qondirish va qarorlar qabul qilish maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektlar ularga ishonchli hamda xolis axborot taqdim etish imkonini beradigan hisob siyosatini ishlab chiqadilar.

Xo'jalik yurituvchi subyektning hisob siyosatini shakllantirishda quyidagi bosqichlar alohida e'tiborga olinishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.



1-rasm. Xo'jalik yurituvchi subyekt (XYS) ning hisob siyosatini shakllantirish bosqichlari

Manba: Muallif ishlanmasi.

Yuqorida sanab o'tilgan hisob siyosatini shakllantirish bosqichlarni quyidagicha qisqacha sharhlash mumkin:

Birinchi bosqichda - hisob siyosati obyektlari belgilanadi, chunki muayyan xo'jalik yurituvchi subyekt faqat o'ziga xos bo'lgan buxgalteriya hisobi obyektlarining to'plamiga ega bo'ladi;

Ikkinchi bosqichda - birinchi bosqich natijalariga qarab hisob siyosatini ishlab chiqishga ta'sir ko'rsatadigan ma'lum sharoitlar, hodisalar va jarayonlar aniqlanadi, boshqacha qilib aytganda, hisobni yuritish usullariga ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlash lozim. Bu o'z navbatida, buxgalteriya hisobini yuritish usuli quyidagi omillarga bog'liq:

- xo'jalik yurituvchi subyektga bog'liq omillar: sohasi; xo'jalik yurituvchi subyekt hajmi; texnologik xususiyatlar; tashkiliy xususiyatlar; huquqiy maqom; shartnomalar muddati, shuningdek, xodimlar malakasi.

- xo'jalik yurituvchi subyektga bog'liq bo'lmagan omillar: soliq rejimi: soddalashtirilgan soliq to'lovchi, QQS to'lovchi; davlatning valyuta siyosati; narx siyosati; soliq imtiyozlari;

Uchinchi bosqichda - xo'jalik yurituvchi subyektning hisob siyosati quyidagi talablarga javob berishi kerak: to'liqlik, o'z vaqtidalik, ehtiyotkorlik, mazmunning shakldan ustunligi, ziddiyatsizlik va oqilonalik.

Muayyan xo'jalik yurituvchi subyektning hisob siyosatidagi tamoyillar va qoidalarni amalga oshirishda quyidagi farazlar e'tiborga olishi lozim: mulkiy alohidaligi, faoliyatning uzluksizligi, ma'lumotlarning vaqtinchalik aniqligi, shuningdek, hisob siyosatini, xo'jalik faoliyatini qo'llash ketma-ketligi;

To'rtinchi bosqichda - buxgalteriya hisobini yuritishda foydalanish mumkin bo'lgan usullarni tanlash;

Beshinchi bosqichda - bevosita muayyan tanlangan xo'jalik yurituvchi subyekt uchun hisob yuritish usullarini tanlashi;

Oltinchi bosqichda - tanlangan hisob siyosatini qabul qilish va rasmiylashtirishdan iboratdir.

Xulosa va takliflar

Hisob siyosatida tanlangan obyektlarni hisobga olish uchun tanlangan usuli xo'jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya hisobi va hisobotlarida aks ettiriladigan masalalar bo'yicha moliyaviy holati yoki natijasiga bevosita bog'liqdir.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar hisob siyosatini shakllantirishda buxgalteriya hisobotini baholash va manfaatdor foydalanuvchilar tomonidan qarorlar qabul qilinishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan buxgalteriya hisobini yuritishning qabul qilingan usullarini ochib berishi shart. Bunda buxgalteriya hisobini yuritishning shunday usullari muhim hisoblanadiki, ularning qo'llanilishini bilmasdan turib, buxgalteriya hisobotidan manfaatdor foydalanuvchilar xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvolini, uning faoliyatining moliyaviy natijalarini va pul mablag'lari harakatini ishonchli baholay olmaydilar.

Agar hisob siyosati o'zgargan hollarda, xo'jalik yurituvchi subyekt o'z navbatida quyidagi ma'lumotlarni oshkor qilishi maqsadga muvofiqdir:

- 1) hisob siyosatini o'zgartirish sabablari;
- 2) hisob siyosatidagi o'zgarishlarning mazmuni;
- 3) hisob siyosatidagi o'zgarishlar oqibatlarini buxgalteriya hisobotida aks ettirish tartibi;
- 4) taqdim etilgan hisobot davri uchun buxgalteriya hisobotining har bir moddasi bo'yicha hisob siyosatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan tuzatishlar summolari;
- 5) buxgalteriya hisobotida taqdim etilgan hisobot davrlaridan oldingi hisobot davrlariga taalluqli tegishli tuzatishlar summasini amalda mumkin bo'lgan darajagacha.

Shunday qilib, ushbu fikr-mulohazalarga asoslanib, xo'jalik yurituvchi subyektning hisob siyosatini shakllantirish jarayonida quyidagi talab va qoidalarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

1) xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobini yuritishda qonuniy - me'yoriy hujjatlarda belgilab qo'yilgan talab va qoidalarga muvofiq, qo'llaniladigan bir nechtasidan faqat bittasini tanlashi lozim. Agar biron-bir masala bo'yicha me'yoriy hujjatlarda buxgalteriya hisobini yuritish talabi belgilanmagan bo'lsa, hisob siyosatini shakllantirishda xo'jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya hisobi qoidalaridan kelib chiqqan holda tegishli usulni mustaqil ravishda ishlab chiqishi;

2) hisobni yuritish uchun tanlangan usul xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan uning barcha tarkibiy bo'linmalarida, ularning joylashgan joyi va faoliyat ko'rsatishidan qat'i nazar, belgilanishi lozim. Bu shuni anglatadiki, vakolatxonalar, filiallar, bo'limlar bo'ysinuvchi xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan belgilangan hisob siyosatiga rioya qilishlari lozimligi;

3) buxgalteriya hisobini yuritishda xo'jalik yurituvchi subyekt quyidagilarni ta'minlashi lozim: hisobot davri mobaynida qabul qilingan hisob siyosatiga, muayyan xo'jalik operatsiyalarini aks ettirishga va mol-mulkni baholashga rioya qilish, bu esa, o'z navbatida qonun hujjatlarida belgilangan qoidalar va xo'jalik yuritish shartlaridan kelib

chiqadi. Demak, xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan qabul qilingan qoidalar uzoq muddatga (kamida bir yilga) belgilanishi va hech qanday holatda ushbu hisobot yili davomida o'zgartirilmassligi;

4) ushbu qoidalar tegishli ichki hujjat (xo'jalik yurituvchi subyekt rahbarining hisob siyosati to'g'risidagi nizomni tasdiqlovchi buyrug'i) bilan mustahkamlangan bo'lishi;

5) xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining belgilangan qoidalaridan kelib chiqqan holda obyektlar to'g'risida ishonchli ma'lumotlarni shakllantira olmaydigan holatlar tushuntirish xatida aks ettirilishi maqsadga muvofiqdir.

Bizning fikrimizcha, xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisob siyosatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish quyidagi hollarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

– O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan buxgalteriya hisobiga oid me'yoriy hujjatlardagi o'zgarishlar bo'lganda;

– xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan buxgalteriya hisobini yuritishning yangi usullari ishlab chiqilganda. Buxgalteriya hisobini yuritishning yangi usullarini qo'llash xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobi va hisobotlarida xo'jalik faoliyati ma'lumotlarini yanada ishonchli taqdim etishni yoki axborotning ishonchlilik darajasini pasaytirmagan holda hisob ishlarining eng kam mehnat talab qilinishi nazarda tutilganda;

– qayta tashkil etish, faoliyat turlarini o'zgartirish, mulkdorlarni almashtirish, ishlab chiqarishni qayta tashkil etish, faoliyat hajmlarini sezilarli darajada kengaytirish yoki kamaytirish va boshqalar bilan bog'liq faoliyat sharoitlarida sezilarli darajada o'zgarish bo'lganda;

– ilgari sodir bo'lgan yoki xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatida birinchi marta vujudga kelgan jarayonlardan mohiyatan farq qiladigan xo'jalik faoliyati ma'lumotlarining buxgalteriya hisobini yuritish usulini tasdiqlash hisob siyosatini o'zgartirish hisoblanmaydi. Bunday holda hisob siyosatiga qo'shimchalar kiritiladi, ular buyruq bilan tasdiqlangan paytdan boshlab amal qiladi. Hisob siyosatidagi o'zgarishlar, agar bunday o'zgarishlarga boshqa biror narsa sabab bo'lmasa, hisobot yili boshidan amalga oshirilishi lozim;

– xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvoriga, uning faoliyatining moliyaviy natijalariga yoki pul mablag'lari harakatiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan yoki ko'rsatishi mumkin bo'lgan hisob siyosatidagi o'zgarishlarning oqibatlari pul ifodasida baholanadi. Hisob siyosatidagi o'zgarishlar oqibatlarini pul ifodasida bunday baholash xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan buxgalteriya hisobini yuritishning o'zgartirilgan (yangilangan) usuli qo'llanilayotgan sanada tekshirilgan ma'lumotlar asosida amalga oshirilishi lozim;

– O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan buxgalteriya hisobiga oid me'yoriy hujjatlardagi o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan hisob siyosatidagi o'zgarishlarning oqibatlari buxgalteriya hisobi va hisobotlarida belgilangan tartibda aks ettiriladi. Agar ushbu hujjatlarda hisob siyosatining o'zgarishi oqibatlarini aks ettirish tartibi belgilanmagan bo'lsa yoki yuqorida sanab o'tilganlardan boshqa sabablar tufayli yuzaga kelgan hisob siyosatining o'zgarishi oqibatlari buxgalteriya hisobotida retrospektiv tarzda aks ettiriladi. Yetarlicha ishonchlilik

bilan amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan oqibatlarni pul ifodasida baholash bunga kiritilmaydi;

– hisob siyosatidagi o'zgarishlarning oqibatlarini retrospektiv aks ettirishda buxgalteriya hisobini yuritishning o'zgartirilgan usuli ushbu turdagi xo'jalik faoliyati jarayonlari yuzaga kelgan paytdan boshlab qo'llanilganligidan kelib chiqiladi. Hisob siyosatining o'zgarishi oqibatlarini retrospektiv aks ettirish "foyda yoki zarar" sifatida hisobotda taqdim etilgan eng dastlabki davr uchun kiruvchi qoldiqni, shuningdek, buxgalteriya hisobotida taqdim etilgan har bir davr uchun ochib beriladigan buxgalteriya hisobotining tegishli moddalari qiymatlarini tuzatishdan iborat bo'ladi. Masalan, agar yangi hisob siyosati ushbu turdagi xo'jalik faoliyati jarayonlari yuzaga kelgan paytdan boshlab qo'llanilgan bo'lsa;

– hisobot davridan oldingi davrlarga nisbatan hisob siyosatidagi o'zgarishlarning pul ifodasidagi oqibatlarini yetarlicha ishonchlilik bilan baholash mumkin bo'lmagan hollarda. buxgalteriya hisobini yuritishning o'zgartirilgan usuli xo'jalik faoliyatiga joriy etilganidan keyin sodir bo'lgan tegishli jarayonlarga nisbatan qo'llalash maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalar, taklif hamda tavsiyalar xo'jalik yurituvchi subyektlarda hisob siyosati va uni shakllantirishda manba sifatida xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Djumayeva G.A. (2024): Xalqaro standartlarga o'tish sharoitida ijara bilan bo'g'liq operatsiyalarni hisob siyosatida aks ettirilishi. *Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali*/ 4 (11). 225-228 betlar
2. Rafeev D.R. (2023): Korxonalar xisob siyosati: tuzish zarurati, talablari va vazifalari. *Buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil etish masalalari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (Iqism). 2023-yil 02-nayabr. Samarqand, SamISI. 232 bet. (86-bet)*
3. Baxadirov A.K. (2023): Xo'jalik yurituvchi subyektlarda xalqaro standartlar asosidagi hisob siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari. *Buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil etish masalalari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (Iqism). 2023-yil 02-nayabr. Samarqand, SamISI. 232 bet. (42-bet)*
4. Ave Nukka, Malle Kasearu. (2016): Accounting policies and procedures in the preparation of the annual report. //5th International Conference on Accounting, Auditing, and Taxation (ICAAT).
5. Alayemi S. (2015): Sunday Alayemi. Choice of Accounting Policy: Effects on Analysis and Interpretation of Financial Statements. //American Journal of Economics, Finance and Management. Volume 1, No. 3. Pp. 190-194.
6. Oğuzhan BAHADIR, Büke TOLGA. (2013): Accounting policy options under IFRS: evidence from Turkey. //Accounting and Management Information Systems. Volume 12, No. 3. Pp. 388–404.
7. Zufarova Z.R. (2023): Hisob siyosati auditini takomillashtirish. *Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent: 56 b.*

8. Sayfutdinov B.N. (2023): Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotni tuzish va auditini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent: 56 b.
9. Adamenko A.A., Berlina S.X., Xuako X.Sh. (2015): Sovershenstvovaniye uchetnoy politiki organizatsii. //Vestnik Akademii znaniy №14(3). Str. 4-8.
10. "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun Konseptual asos". (O'zR AVdan 12.07.2024-yilda 3530-son bilan ro'yxatga olingan).
11. 1-sonli "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati" BXMS. (O'zR AVdan 06.08.2024-yilda 3544-son bilan ro'yxatga olingan).
12. 8-son "Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti. O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida (O'zR AVdan 09.12.2022-yilda 3400-son bilan ro'yxatga olingan).
13. 21-sonli "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida" BHMS. (O'zR AVdan 27.12.2024-yilda 3593-son bilan ro'yxatga olingan).

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

